

GEOMETRIYA ELEMENTLARINI O'QITISHDA ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANIB AXBOROT TAHLIL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annaqulova Sabrina Komiljon qizi
magistrant, Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti

Meyliyev Sobirjon Xolmurodovich
dotsent, Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti
sobirjonmeyliyev@gmail.com.tel.: +998935459140

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzu bo'lgan boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslarini yaratish bilan, axborotni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli tushunchani ta'minlash uchun miqdoriy va sifat ma'lumotlarini yig'ish usullarini xamda tizimli yondashuv orqali keltirib o'tilgan tadqiqotlar o'qituvchilar ta'limi dasturlarini va bo'lajak o'qituvchilarning umumiy media savodxonligi ko'nikmalarini oshirishga hissa qo'shishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, axborot taxlil, elektron resurs savodxonlik, kompetentlik

Аннотация: В данной статье подчеркивается, что исследование, представленное посредством системного подхода и методов сбора количественных и качественных данных для обеспечения комплексного понимания развития компетенции анализа информации с созданием электронных учебных ресурсов при преподавании элементов геометрии в начальных классах, что является актуальной на сегодняшний день темой, может способствовать совершенствованию программ педагогического образования и общих навыков медиаграмотности будущих учителей.

Ключевые слова: будущий учитель, студент, образование, анализ информации, грамотность, компетентность

Abstract: In this article, it is highlighted that the research presented through a systematic approach and quantitative and qualitative data collection methods to provide a comprehensive understanding of the development of information analysis competence with the creation of electronic learning resources in teaching the elements of geometry in elementary grades, which is a topical topic today, can contribute to the improvement of teacher education programs and general media literacy skills of future teachers.

Key words: future teacher, student, education, information analysis, literacy, competence

Boshlang'ich matematika fanidan o'quv dasturida geometrik material katta o'rinni oladi. Geometrik materialni o'rganishning asosiy maqsadi geometrik figuralar haqida, ularning elementlari haqida, figuralar va ularning elementlari orasidagi munosabatlari haqida, ularning ba'zi xossalari haqidagi tasavvurlarning to'la sistemasini tarkib toptirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda geometrik materialni o'rganish sistemasi quyidagilardan iborat:

1. Geometrik figuralardan sanash ob'yektlari sifatida foydalaniladigan masalalar. Bu xil masalalarni yechishda asosan zarur atamalar o'zlashtiriladi

2. Geometrik kattaliklar (uzunlik, yuz) haqidagi tasavvurlarni va kesmalarni, figuralar yuzlarini o'lchash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar.

3. Ko'pburchaklarning perimetrlarini, to'g'ri to'rtburchakning yuzini topishga doir masalalar.

4. Parametrlari bilan berilgan figuralarni (to'g'ri burchakli uchburchak, tomonlari berilgan to'g'ri to'rtburchaklar va h. k.)

elementar yasashlarga doir masalalar.

5. Geometrik figuralarni katak qog'ozda, chiziqsiz silliq qog'ozda chizg'ich, go'niya yordamida (o'lchamlarni hisobga olmay) elementar yasashga doir masalalar.



6. Figuralarni sinflarga ajratishga doir masalalar.

7. Figuralarni qismlarga bo'lish (shu jumladan teng qismlarga bo'lish)ga doir masalalar va boshqa figuralardan figura tuzishga doir masalalar.

8. Harfiy belgilashlardan foydalanib, geometrik chizmalarni o'qishning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar.



9. Predmetlar yoki ular qismlarining geometrik shakllarini aniqlash bilan bog'liq masalalar.



Yuqoridagi mulohazalardan foydalanib elektron resurslarni yaratishda “Вставка” menyusining “Рисунок” bo‘limidan biz turli xil rasmlar joylashimiz mumkin.




Geometrik figuralar haqidagi fazoviy tasavvurlar, geometrik figuralarni chizmachilik va o‘lchash asboblari yordamida va bu asboblarning yordamisiz o‘lchash va yasashlarning amaliy malakalarini (ko‘zda chamalash, qo‘lda chizish va hokazo) tarkib toptiriladi; o‘quvchilarning nutq va fikrlashlari shu asosda rivojlantiriladi.

Geometrik bilimlar (geometrik figuralar) ni tasviriy axborotlarsiz ya’ni, tasvirlarsiz o‘rgatish mumkin emas. Axborot texnologiyalari yordamida har xil tabiatli predmetlar va geometrik figuralarning modellari bilan ish ko‘rib o‘quvchilar ularning materialiga, rangiga, holatiga, og‘irligiga va boshqalarga bog‘liq bo‘lmagan umumiy belgilarini (alamatlarini) hamda o‘ziga hos bo‘lgan xususiy belgilarini topadilar.

Bunga geometrik namunalarni mujassamlashtirish usulini sistemali ravishda qo‘llanish bilan erishiladi. Masalan, ekranda to‘g‘ri chiziqli vaziyatini o‘zgartirish, ya’ni uni gorizontali, vertikal va qiya holda tasvirlash, to‘g‘ri chiziqli faqat chizg‘ich yordamidagina hosil bo‘lmay, balki u harakatlanuvchi nuqtaning (qalam uchining) izi yordamida hosil bo‘lishini maxsus videoroliklar asosida o‘rgatish mumkin.

Dastlab figuralar va ularning nomlari bilan dastlabki tanishtirish yakunlanishi bilan, bu ish atrofdagi moddiy narsalar, figuralarning tayyor modellari va tasvirlari yordamida bajariladi. O‘quvchilarda sekin-asta figuralarni o‘rganish sxemasi, ularning har bir figura xossalarini o‘zlashtirishlarini osonlashtiruvchi analiz va sintez qilish sxemalari tarkib topadi, ya’ni geometrik rivojlanishning eng yuqori bosqichiga o‘tish amalga oshadi.



Atrof-muhitdagi predmetlarda to'g'ri chiziq kesmasini ko'rsatishga doir didaktik o'yin o'tkazish mumkin. Slaytda tasvirlar (masalan, shkafning qirralari, pol bilan devor tutashadigan joylar yoki shift bilan devorlar tutashadigan joylar va hokazolar) namoyish qilinadi. O'quvchilar tasvirlarda namoyish etilgan predmetlardagi to'g'ri chiziq kesmasini ko'rsatadilar va tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Elektron ko'rinishdagi modellar ko'pburchaklarning alomatlarini ajratishga doir ish klassifikatsiyalash ishiga asos bo'ladi. Bu ishning mohiyati berilgan turdagi ob'yektlarga tegishli bo'lgan va bu ob'yektlarni boshqa turdagi ob'yektlardan farqlantiruvchi muhim alomatlariga ko'ra shu ob'yektlarni gruppalashtirishdan (ajratishdan) iborat. Bu logik operatsiya yordamida geometrik figuralar haqidagi bilimlar sistemalashtiriladi, umumlashtirishga doir qobiliyatlar rivojlantiriladi.

Geometrik figuralarning modellari yordamida figuralarni klassifikatsiyalashga doir har xil mashqlarni bajarish mumkin:


1. Figuralarni rangiga ko'ra har xil gruppalariga ajratish.
2. Figuralarni aralashtirish va formalari bo'yicha o'xshash gruppalariga ajratish.
3. Berilgan ko'pburchaklarni rang va boshqa belgilariga ko'ra qarab gruppalashtirish.

Geometrik figuralarning modellari yordamida figuralarni qismlarga ajratish va qismlardan yangi figuralar tuzishga doir (applikatsiyalar yasashga doir), naqshlar tuzishga doir masalalar bilan bog'liq bo'lgan har xil topshiriqlarni bajarish mumkin.

Bunday mashqlar bolalarning geometrik tasavvurlarini boyitadi, geometrik "sezgirlik" ni, fazoviy tasavvurni rivojlantirishga imkon beradi. Dasturda ko'rsatilishicha, boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'rganish maqsadlariga javob beruvchi ish turlaridan biri tanish geometrik figuralarni atrof sharoitda va chizmada tanishga doir mashqlardir (xususan, bu figura murakkabroq konfiguratsiya


elementlaridan biri bo'lgan holda ham.) Bu ish o'z ichiga murakkab figuralarda (chizmalarda) tanish figuralarni topish, bir nechta figuradan iborat, figurani, bir nechta figuraning umumiy qismidan iborat figurani topish yoki umumiy elementga ega figuralarni izlashga doir mashqlarni oladi. Darsliklarda quyidagi xildagi mashqlar sistemasi shu masalaga bo'ysundirilgan.

Berilgan figuralar orasidan ko'rsatilgan xossalarga ega bo'lgan figurani topish. Masalan, rasmga qarab bu figuralar nima deb atalishini ayt. To'rtburchaklar orasidan to'g'ri to'rtburchaklarni toping va uni yuzi qanaqa topiladi. To'rtburchaklar orasidan kvadratni ko'rsating va yuzlari va tamonlari orasidagi bog'lanish, Masalan: perimetrlarini topish, diagonalini o'lchash, yuzalarini boshlang'ich sinflarga xos mos qilib topish va hokozalar.



Murakkab chizmadan bir nechta figuradan tashkil topgan figuralarni izlash.

Masalan, chizmada uchburchaklar nechta (rasm)? Bu chizmada (rasm) nechta uchburchak bor? Ularni nomlang va yozing.



Bu xil mashqlarda berilgan murakkab figurani tashkil etuvchi figuralarni izlab topish, shuningdek bir nechta figurani birlashtirib hosil qilish mumkin bo'lgan figuralarni izlab topish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -

har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11

2.S.Burhonov va boshq. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Sharq" 2012 y

3.Jumaev M. E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziya" 2013 yil.

4. I-IV sinflar uchun matematikadan qiziqarli masala va topshiriqlar to'plami o'quv uslubiy qullanma // S.Meyliyev, M.Xolmuradova, S. Xolmuradov. Toshkent. "O'qituvch" nashriyoti 2024y.-119b